



HUDUDLARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH VA BANDLIKNI OSHIRISH

Xayitova Iroda Naimovna

Buxoro muhandislik texnologiya instituti “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasi o’qituvchisi
Davlatova Madinabegim Muzaffar qizi

Buxoro muhandislik texnologiya instituti “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hududlarda tadbirkorlikni rivojlanirish va bandlikni oshirishning muhimligi, foydalari hamda ushbu sohadagi dolzarb muammolar yoritilgan. Tadbirkorlikning hududiy rivojlanish va ijtimoiy farovonlikni oshirishdagi roli, shuningdek, uning iqtisodiy barqarorlikni ta’minalashdagi o’rnii tahlil qilinadi. Maqola hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirish bo‘yicha strategik yondashuvlarni ishlab chiqishda foydali bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik, hududiy rivojlanish, bandlik, moliyaviy qo’llab-quvvatlash, infratuzilma, mahalliy resurslar, innovatsiya, soliq imtiyozlari, kadrlar tayyorlash, iqtisodiy barqarorlik, davlat qo’llab-quvvatlovi.

Mamlakatimizda aholini turmush farovonligini oshirish, ayniqsa, aholi bandligini ta’minalashga qaratilgan ko’plab loyihalar, dasturlar ishlab chiqilib, tadbirkorlik faoliyatini boshlash niyatida bo’lgan fuqarolar uchun imtiyozli kreditlar ajratilmoqda. O’tgan qisqa davrdagi islohotlar, ayniqsa, tadbirkorlik rivojiga qaratilayotgan e’tibor hayotimizning barcha jabhalarida yangilanish va tub o’zgarishlarga zamin hozirladi. Jamiyatimizning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy manzarasi butunlay o’zgardi. Izchillik bilan hayotga tatbiq etilayotgan islohotlar zamirida, avvalo, aholining yashash sharoitlarini yaxshilash, bandligini ta’minalash orqali daromadlarini oshirishdek ezgu maqsadlar mujassam. Zero, bu sa'y-harakatlar natijasida aholi bandligi va daromadlarini oshirishga erishilmoqda. Hududlarda tadbirkorlikni rivojlanirishga bir qator omillar ta’sir ko’rsatadi. Ulardan ba’zilari quyidagilardir:

1. Infratuzilmaning rivojlanganligi: Yo’llar, elektr energiyasi, suv ta’minoti va aloqa xizmatlarining mavjudligi tadbirkorlik faoliyatini uchun muhim ahamiyatga ega.

2. Moliyaviy qo’llab-quvvatlash tizimlari: Kreditlar, grantlar va subsidiyalar orqali tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlash, ayniqsa, yangi bizneslarni boshlashni osonlashtiradi.

3. Mahalliy resurslardan foydalanish: Hududning tabiiy, insoniy va iqtisodiy resurslarini samarali boshqarish biznesni muvaffaqiyatli olib borishda asosiy omil hisoblanadi.



4. Ta'lif va kadrlar tayyorlash: Tadbirkorlik bilimlariga ega malakali kadrlarning mavjudligi innovatsion loyihalarni amalga oshirish imkoniyatini oshiradi.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 29-maqсадига ко'ра, тадбиркорлик фаoliyatini ташкіл qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish учун шароитлар yaratish, xususiy sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish belgilangan. Muhim vazifalar sifatida hududlarda 200 ta yangi sanoat zonalarini tashkil etish va biznes-inkubatorlar tizimini rivojlantirish, шароити og'ir bo'lgan tumanlarda тадбиркорликни rivojlantirish учун yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, hududlarda тадбиркорликни qo'llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektorga keng yo'l ochish, iqtisodiy munosabatlarda erkin bozor tamoyillarini joriy etishni kengaytirish kabilar alohida belgilab qo'yilgan. Mamlakatimiz hududlarida kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini oshirish, o'zini-o'zi band qilishda kichik biznes va xususiy тадбиркорликни yanada rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Buni yil boshidan buyon тадбиркорлик, sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish каби соҳаларда 2 million аholining doimiy bandligi ta'minlangani, 4 milliondan ziyod aholi mavsumiy mehnat orqali daromadli bo'lgani misolida ham ko'rish mumkin. Ayniqsa, yangi korxonalarning tashkil etilishi bir tomonidan eksport ko'lamini oshirishga, ikkinchi tomondan joylarda yangi ish o'rnlari yaratilishi va aholi bandligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Chunki тадбиркорликни rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar tufayli, hududlarda korxonalar 85 mingtaga ko'payib, ularning soni 550 mingtaga etdi. Buning hisobiga, 2022 yilda daromad solig'i to'layotgan rasmiy band bo'lganlar soni 400 mingtaga oshib, 5 million 100 mingtani tashkil etdi. Lekin yaratilayotgan imkoniyatlarga qaramay, ayrim hududlarda aholi bandligini ta'minlash ko'rsatkichlari yaxshi emas.

Hududlarda тадбиркорликни rivojlantirish va bandlikni oshirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar uzoq muddatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va aholi turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi. Ushbu yo'nalishda davlat, jamiat va xususiy sektorning o'zaro hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Xususan, Davlat qo'llab-quvvatlovi: Mahalliy тадбиркорликни rivojlantirish учун soliq imtiyozlari, subsidiyalar va grantlarni kengaytirish zarur. Ta'lif dasturlarini tashkil etish: Tadbirkorlik va boshqaruv bo'yicha maxsus kurslarni joriy etish hamda amaliy treninglar tashkil qilish. Infratuzilmani rivojlantirish: Elektr energiyasi, transport va aloqa infratuzilmasini yaxshilash orqali тадбиркорликка qulay sharoitlar yaratish. Mahalliy va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish: Hududlarga xorijiy sarmoyalarni jalb qilish va eksport imkoniyatlarini kengaytirish.





Hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish va bandlikni oshirish bo'yicha yuqorida aytib o'tilgan tavsiyalarni amalga oshirish iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni jadallashtirishga xizmat qiladi.

Soliq imtiyozlari va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish tadbirkorlikka rag'batni oshiradi, infratuzilmani rivojlantirish esa biznes uchun qulay sharoitlar yaratadi.

Ta'lim va trening dasturlari orqali malakali kadrlarni tayyorlash innovatsiyalarni joriy etish va samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Davlat, xususiy sektor va mahalliy aholi o'rtaсидаги hamkorlikni kuchaytirish hududlar iqtisodiyoti salohiyatini oshirib, uzoq muddatli barqaror rivojlanish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //Xalq so'zi. 25.01.2020-y.
2. R.Xasanov, B.Usmonov O'zbekistonda kambag'allik va uni qisqartirish yo'llari – <https://review.uz/oz/post/ozbekistonda-kambagallik-va-uni-qisqartirish-yollari>
3. "Tadbirkorlik va biznesni boshqarish" (O'quv qo'llanma), Mualliflar: N. R. Egamberdiyev, B. T. Jo'raboyev, Toshkent, 2021.
4. "Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyalari", O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi nashri, 2023
5. Z.E.Suyarov KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISH DASTURINING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 2 | 2021
6. Amrulloyev, D. N., and R. X. Alimova. "KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISH ORQALI FAROVONLIKNI OSHIRISH: IQTISODIYOTDAGI INNOVATSION O'ZGARISHLAR." XALQARO KONFERENSIYA VA JURNALLARNI SIFATLI INDEXLASH XIZMATI 1.1 (2024): 417-421.

